

MUSIQA TA'LIMI MUHITIDA DEVORIY BADIY BEZAKLARNING DIDAKTIK VA DIZAYN AHAMIYATI

Doniyor Xudoyberdiyev
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Musiqqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda musiqa ta'limi muassasalarida estetik muhitni shakllantirishda devoriy badiiy bezaklarning o'rnini tahlil qilinadi. Musiqa ta'limi xonalarining dizayni nafaqat vizual go'zallik, balki didaktik va muhandislik yechimlari (akustika) nuqtayi nazaridan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, devoriy bezak, estetik muhit, san'atlar sintezi, dizayn, akustik yechimlar.

Annotation: This thesis analyzes the role of mural artistic decorations in shaping an aesthetic environment in music education institutions. The design of music classrooms is substantiated not only from the perspective of visual beauty, but also in terms of didactic and engineering solutions (acoustics).

Keywords: music education, mural decoration, aesthetic environment, synthesis of arts, design, acoustic solutions.

Аннотация: В данной работе анализируется роль настенных художественных украшений в формировании эстетической среды в учреждениях музыкального образования. Дизайн музыкальных кабинетов обосновывается не только с точки зрения визуальной красоты, но и с позиции дидактических и инженерных решений (акустики).

Ключевые слова: музыкальное образование, настенное оформление, эстетическая среда, синтез искусств, дизайн, акустические решения.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv shaxsning har tomonlama kamol topishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy pedagogik qarashlarda ta'lim muhitining estetik jihatdan boyligi o'quvchilarning bilimni qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Shu bois ta'lim makonining dizayni va badiiy tashkil etilishi ham didaktik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi [1]. Xususan, musiqa ta'limida o'quvchi nafaqat tovushlar olami, balki uni qurshab turgan vizual muhit orqali ham san'atni idrok etadi. Musiqa san'ati tabiatiga ko'ra obrazli tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli o'quv muhitining vizual unsurlari musiqiy tasavvurni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa ta'limi xonalarining devoriy badiiy bezaklari ta'lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik qurol hisoblanadi. Bunday bezaklar o'quv jarayonida estetik tarbiya, emotsional muhit va musiqiy tafakkur o'rtasida o'ziga xos bog'lovchi omil sifatida namoyon bo'ladi [2].

Tadqiqotning maqsadiga ko‘ra, devoriy bezaklar quyidagi to‘rtta funksional yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi:

Devorlarda aks etgan milliy cholg‘u asboblari, buyuk bastakorlar portretlari va musiqiy atamalar o‘quvchi uchun «ko‘rgazmali darslik» vazifasini o‘taydi. Masalan, dutor, tanbur, rubob yoki doira kabi milliy cholg‘u asboblarning tasvirlari o‘quvchilarda milliy musiqa merosiga nisbatan qiziqish va hurmat hissini uyg‘otadi. Bastakorlar portretlari esa o‘quvchilarni musiqa tarixidagi muhim shaxslar bilan tanishtirib, tarixiy xotirani mustahkamlaydi. Bu ma‘lumotlarning xotirada muhrlanishini 30–40% ga tezlashtiradi. Vizual materiallar orqali berilgan ma‘lumotlar o‘quvchilarning ko‘rish orqali idrok etish qobiliyatini faollashtirib, nazariy bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga yordam beradi [3].

Ranglar psixologiyasidan to‘g‘ri foydalanish (masalan, osoyishta ko‘k va yashil ranglar yoki ijodiy sarg‘ish tuslar) o‘quvchining emotsional holatini barqarorlashtiradi va darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ranglarning uyg‘un tanlanishi o‘quvchilarda ijobiy kayfiyatni shakllantirib, dars jarayonida diqqatni jamlashga yordam beradi. Masalan, och yashil rang tabiat bilan uyg‘unlikni ifodalab, ruhiy sokinlikni ta‘minlaydi, sariq rang esa faollik va ijodiy energiyani kuchaytiradi. Shu sababli musiqa ta‘limi xonalarida rang tanlash pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilishi lozim [4].

Musiqa va tasviriy san‘atning uyg‘unligi o‘quvchida abstrakt tafakkurni rivojlantiradi. Ritm va ohangning vizual shakllar (chiziqlar, naqshlar) orqali ifodalanishi san‘atni yaxlit idrok etishga yordam beradi. Masalan, ritmik naqshlar yoki musiqiy chiziqlar shaklida yaratilgan devor kompozitsiyalari o‘quvchilarga musiqadagi harakat, dinamika va ritm tushunchalarini obrazli ravishda anglash imkonini beradi. Bunday integratsion yondashuv san‘at turlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib, o‘quvchilarda kompleks estetik tafakkurni shakllantiradi [5].

Zamonaviy yondashuvda devoriy bezaklar shunchaki rasm emas, balki akustik panellar bilan integratsiya qilinishi lozim. Bu yondashuv ta‘lim makonini nafaqat estetik, balki texnik jihatdan ham mukammal tashkil etishga xizmat qiladi. Bu muhandislik yechimi xonadagi aks-sadoni (exo) kamaytirib, musiqa ijrosi sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [6]. Maxsus akustik materiallardan tayyorlangan panellar tovushning devorlardan qaytishini nazorat qiladi va xonada toza akustik muhit yaratadi. Natijada o‘quvchilar musiqa tinglash va ijro jarayonida tovushni yanada aniqroq idrok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [7].

Xulosa o‘rnida aytganda, musiqa ta‘limi xonalarini badiiy bezashda faqat estetikaga emas, balki muhandislik va pedagogik talablarga ham tayanish lozim. Bunday yondashuv ta‘lim makonini kompleks ravishda tashkil etishga imkon

beradi. Tizimli ravishda loyihalashtirilgan devoriy bezaklar o‘quvchilarning badiiy didini o‘stirish bilan birga, ta’lim muhitining sifat darajasini yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, bunday muhit o‘quvchilarda musiqa san’atiga nisbatan chuqur qiziqish uyg‘otib, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллин Э.Б. Теория и практика музыкального образования. – Москва: Академия, 2013.
2. Назаров Қ. Педагогика ва санъат таълими назарияси. – Тошкент: Фан, 2018.
3. Mayer R. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
4. Elliot D., Silverman M. Music Matters: A Philosophy of Music Education. – New York: Oxford University Press, 2015.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011.
6. Long M. Architectural Acoustics. – Amsterdam: Elsevier Academic Press, 2014.
7. Baymetov B.B., Muratov Kh.K., Yusupova Sh.A., Norqulova D.U., Muxitdinova M.S., Khamraqulova M.T., Yusupov U.K., Susilawati A. Technologies for the scientific and theoretical formation of professional competence in future fine arts teachers // *Journal of Engineering Science and Technology*. – 2025. – Vol. 20, № 3 (Special Issue ISCoE2024). – P. 17–24.